



## SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASINING TARIXIY TARAQQIYOTI

Latipova Mavluda Mamajonovna

Andijon viloyati Shaxrixon tumani

52-umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Shaxs psixodiagnostikasi tarixi bevosita psixologiyaning tarixi bilan uzviy bog'langan bo'lib, uning amaliy jihatdan namoyon bo'lishida katta ahamiyati mavjud. Tarixdan ma'lumki, turli xil davlatlarda harbiy xizmatga qabul qilish uchun tanlanadigan shaxs har xil qobiliyatli va imkoniyatli sinovlardan o'tganligi hammamizga sir emas. Bu davr qadimiy Xitoyga borib taqaladi. Xitoy imperiyasida davlat xizmatiga o'tish uchun imtihonlar tizimi mavjud bo'lgan, bu 2 ming yil davom etgan. Qadimiy yunonlarda kelgusidagi o'quvchi va askarlarga imtihon sinovlari majburiy hisoblangan. Ularning jismoniy va intellektual qobiliyatlarini aniqlash uchun turli sinovlardan o'tkazilgan. O'rta asrlarda 1370- 1372-yillarda Vietnam davlati rahbariyati davlat apparatidagi barcha harbiy va fuqaroviylar boshliqlarni qayta attestatsiyalashtirish o'tkazildi. Uning natijasida Vietnam kuchli feudal davlatga aylantirildi. Asosiy e'tibor jangavor shay harbiy xizmatchi ofitserlar korpusini shakllantirishga qaratilgan. Testologiya tarixidan ham ma'lumki, dastlabki diagnostik metodikalar, xususan, ispan olimi Xuan Kart (1530-1589), J. Eskirov (1772-1840), E. Segen (1812- 1880), tomonidan taqdim etilgan diagnostik vositalar inson psixologiyasining ma'lum bir jihatlarini yoritishga qaratilgan bo'lsa-da, tashxis natijalari sifatini baholash borasida ma'lum talablar masalalari xususida to'xtalishga erta edi. Shunday bo'lsa-da, fransuz olimlar J.Eskirov va E.Segenlar psixik kasallik bilan aqliy taraqqiyotdan ortda qolish o'rtasida farqlashni mezonlar orqali o'rganishga kirishgan edilar . Ilmiy Testologiyaning tarkib topishida psixologiya fanida eksperiment va o'lchash g'oyalarining kirib kelganligini tadqiqot sohasida qo'yilgan katta qadam deb baholash mumkin. Bu boradagi o'rinishlarni XIX asrning 30-yillarida nemis olimi Wolf tomonidan diqqat xususiyatlarini aniqlash borasidagi uzoq vaqt davomida olib borgan izlanishlarida kuzatish mumkin. Bu esa nemis olimini psixometriya tushunchasini fanga olib kirgan degan xulosani beradi. E.Veber va G.Fexnerning (XIX asrdagi o'rtalari) psixofizik tadqiqotlari ham eksperimental psixologiyada psixik hodisalarini o'rganishda yangi yo'nalish ochgan deyishimiz mumkin. Bu tarzdagi tadqiqotlarlar ko'lamin yana bir qator olimlar misolida sharhlash mumkin. Ammo psixologik tadqiqotlarda statistik qayta ishslash usullarini tatbiq etilishini olamshumul ilmiy inqilob deb qarash mumkin. F.Galton o'z davridayoq korrelyatsiya koeffitsientini hisoblash metodini (1888-yil) antropometriya va irlaryatni aniqlashda foydalangan edi. F.Galton va uning izdoshi K.Pirsonlarning korrelyatsiya koeffitsientini aniqlash usulini, A.Bine va T.Simon intellektni o'lchashda shkallarga



tayangani (1905), V.L.SHtern tomonidan intellekt koeffitsienti (IQ)ni fanga kiritilganligi tadqiqotlarda sifat o'zgarishi yuz berishidan dalolat beradi<sup>3</sup>. Yuqorida sanab o'tilgan tarixiy manbalar psixodiagnosika sohasidagi ilmiy qadamlar hisoblanadi. Psixologik testlardan foydalanishning tarixiy taraqqiyotining bir davri 20-asrning boshlarida Fransuz olimlari A.Bine va T.Simonlarning xizmatlari kattadir. A.Bine va T.Simonning izlanishlariga qadar nemis olimi G.Ebbingaus tomonidan olib borilgan izlanishlar aynan ularning intellektual testlarni ishlab chiqishi uchun nazariy asos bo'ldi deyish mumkin. Chunki, G.Ebbingaus tomonidan taqdim etilgan xotirani o'rganish testlari inson psixologiyasi borasidagi yangi metodik izlanishlar natijasi edi. Psixologik testlarning XX asrning boshlarida rivojlanishining tarixiy ildizlari borasidagi dastlabki mulohazalarimiz A.Bine va T.Simonning izlanishlari bilan boshlangan bo'lsa-da, ammo XX asrning boshlarida izlanishlarning AQSHda keng olib borildi. Dastlab Bine simonning standartlashtirilmagan testlarini AQSHda qo'llagan tadqiqotchi Genri Goddard hisoblanadi. Keyinchalik Bine-Simon testlarini G.Goddartdan so'ngra amerikalik olim Lyuis Medison Termen X.D.Chayldz bilan birlgilikda testlarni adaptatsiya qilish bilan shug'illana boshladi. Intellekt testlarni ishlab chiqish bilan bir qatorda Shaxsni nokognitiv sohasini o'rganishga qaratilgan metodikalar (Shaxsni o'rganish testlari) ham yaratilishiga e'tibor qaratila boshlandi. Shaxs savolnomalari borasida Robert Session Vudvorts (1917) anomal xulqni o'rganishga mo'ljalangan testni ishlab chiqdi. Ammo psixologiyada shaxsni o'rganish so'rovnomalari borasida dastlabki savolnomalarni birinchi bora 1909-yilda gollandiyalik olimlar G.Xeymans bilan E.Virsm tomonidan ishlab chiqilgan degan mulohazalar bor. «Shaxsiy ma'lumotlar varag'i» tarzdagi bir necha savolnomalarning muallifi sanaladi. So'ngra Shaxs savolnomalari borasida Floyd va Gordon Olport tomonidan Shaxs fazilatlari reytingi (1921-22) taklif etdilar. Folker tomonidan Shaxsni baholash testi (1921). Shuningdek, psixodiagnostik testlar borasida German Rorshaxning (1921) va Trumen Li Kellining (1928) xizmatlarini ham hisobga olish lozim. XX asrning 30-yillarida bir qator testlar vujudga keldi. Ularning ko'p qismi AQSHda yaratildi. Shuningdek, 1936-yilda eng etakchi testlar sifatida quyidagi beshta testlar e'tirof etildi: Stenford-Bine, Rorshax testi, Bernteyterning Shaxs savolnomasi, Sishoning Musiqiy talantni Aniqlash testi, Strongning professional qiziqishlarning blanki. 1940 yillarda Oskar Burosning «psixik o'lchashlarning yilnomasi» nashrida psixologik testlar haqida ma'lumotlar taqdim etila boshlandi. Bunda 325 test sharhlanib, 200 test faqat sanab o'tilgan edi. Birinchi jahon urushi singari Ikkinchi jahon urushi arafasida ham AQSHda Yangi testlar ishlab chiqila bordi. Amerikalik olimlar Yana asosiy e'tiborni armiya uchun zarur guruhiy testlarni yaratishga kirishdilar va Armiyaning umumiyligi klassifikatsiyalovchi testi-guruhiy testi yaratildi. Unda 10mln yaqin harbiy 11 xizmatchilar o'tkazildilar. Shuningdek, harbiylarda Rorshax, TATning qisqartirilgan testi, vaziyatli testlar ham tatbiq etila boshlandi.

Buyuk Britaniyada esa Ravenna progressiv matritsalari harbiy klassifikatsiyalashda qo'llanila boshlandi. 40-yillarda erishilganlik Stenford testi, Otisning klassifikatsion testi, Kyuderning 168 topshiriqli savolnomasi, shu yillari Katrin Briggs va uning qizi Isabel Mayers tomonida «Mayers-Briggsning tiplar indikatori» ustida ishlar olib borilib, 1962 yildagina ushbu test e'lon qilindi. Ushbu yillarda ko'pchilikni e'tiborini Minnesotskiyning ko'p jabhali Shaxsni o'rganish savonomasi (MMPI) o'ziga jalg etdi. G.Y.Ayzenkning Moudsleysk tibbiyat savolnomasi yaratildi. Gilfordning «Temperament sharhi»ni yaratilishiga olib keldi. Urushdan so'ngra Saul Rozensveyning frustratsiyaga reaksiyani aniqlash proaktiv testi (24 ta suratdan iborat) vujudga keldi. 50-yillarda Vekslerning katta yoshdagilarni intellektini o'rganish shkalasi yaratildi. R.Kettellning intellektni aniqlashning erkin madaniy testi va 16 faktori Shaxs savolnomasi yaratildi (1958). D.Teylarning bezovtalanishning namoyon bo'lishini aniqlash metodikasi (1953) keng ko'lamma tadqiqot maydoniga kirib keldi. Shaxs haqida ma'lumot to'plashning uchta asosiy metodlari farqlanadi. Birinchi metod - inson xulq-atvorini kundalik hayoti davomida qayd etib borish. Bu usul tashqi kuzatishga asoslanib Shaxsning aniq sa'yiharakatlari va muvaffaqiyatlarini tashqi kuzatish va qayd etishga asoslanadi. Mazkur usul yordamida olingan ma'lumotlarni L - ma'lumotlar deb atash qabul qilingan. Ko'p hollarda L - ma'lumotlar boshqa metodning validligini o'lchash maqsadida tashqi mezon sifatida qo'llaniladi. Uning kamchiligi ortiqcha subyektivligidir. Ikkinchi metod — o'ziga o'zi hisob berishga asoslangan turli so'rovnama va metodikalarni qo'llash. Shunga o'xshash tadqiqot natijalari Q - ma'lumotlar deb atalib, ular o'zining qulayligi, axborot olishning osonligi bilan Shaxsga oid tadqiqotlarda markaziy o'rinni egallaydi. Biroq bu metod ham kamchiliklardan xoli emas. Mazkur metod o'ziga o'zi hisob berishga asoslanganligi bois ba'ji ma'lumotlar qisqartirilgan bo'lishi mumkin. Bunday qisqarishlar tekshiriluvchilar - 12 ning madaniy va intellektual taraqqiyotining pastligi, motivatsiyasining tabiatini, noto'g'ri etalonlardan foydalanilganligi bois kuzatilishi mumkin. Uchinchi metod - ob'ektiv ma'lumotlarni qayd etishga asoslangan. Bunday metodlar yordamida olingan ma'lumotlar T - ma'lumotlar deb ataladi. Mazkur metodning kamchiligi yuqori darajada ko'p mehnat talab qilishi va natiyalarni rasmiylashtirishning murakkabligidadir.

Proaksiya voqelikni, odamlarni, namoyon qilingan stimullarni idrok etish muayyan darajada Shaxsning psixik holati, ehtiyoj, motiv, ustanovkalariga asoslanganligi haqida to'liq ma'lumotlar berildi. Bir qator psixolog olimlarning psixodiagnostika sohasidagi qator izlanishlari, ular ommaga tadbiq etgan turli xildagi testlar ushbu bobda ko'rib chiqildi. Bundan tashqari xozirgi zamon psixologiyasida shaxsni diagnostika qilishda psixologik metodlarning o'mni qanchalik muhim ekanligi o'z isbotini topdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. G‘oziev E. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi): Ped. institutlari va universitetlarining talabalari uchun o’quv qo’l. – Toshkent: O’qituvchi, 1994. – 244 b.
2. G‘oziev E. O’quvchilarning o’quv faoliyatini boshqarish. – Toshkent: O’qituvchi, 1988. – 104 b.
3. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. T. O‘qituvchi. 2010 у.
4. G‘oziev E.G‘. Psixologiya. — Т., О‘зМУ «Universitet», 2003